

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840876>

Ne'matullayeva Fayoza

Termiz davlat universiteti İjtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich 121-guruh talabasi

Tel nomer:+998937966500

Email: freyajffr@gmail.com

Annotatsiya: *Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning ijodiga oid bo'lgan ishlar va adibning ijodiy mahorati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ijodkorning hikoyalari, qissalari va romanlarining g'oyalari tahlil etiladi. Adibning ibratli hayat yo'liga nazar tashlanadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek adabiyoti, ijodiy prinsip, ruhiy kechinma, xalqonalik*

THE PLACE OF SHUKUR KOLMIRZAYEV IN UZBEK LITERATURE

Annotation: *Shukur Kholmirzayev is a well-known writer who made a great contribution to the development of Uzbek literature of the 20th century. This article talks about the work of Shukur Kholmirzayev and the creative skills of the writer. Also, the ideas in the author's stories, short stories and novels are analyzed. A look at the exemplary life path of the writer is given.*

Keywords: *Uzbek literature, creative principle, spiritual experience, national spirit*

МЕСТО ШУКУРА КОЛМИРЗАЕВА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: *Шукур Холмирзаев – известный писатель, внесший большой вклад в развитие узбекской литературы 20 века. В данной статье рассказывается о творчестве Шукура Холмирзаева и творческом мастерстве писателя. Также анализируются идеи в рассказах автора, рассказах и романах. Дается взгляд на образцовый жизненный путь писателя.*

Ключевые слова: *узбекская литература, творческое начало, духовный опыт, национальный дух.*

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamiza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining rang-barang va sermazmun ijodi bilan hozirgi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining gullab-yashnashiga, yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishga samarali hissa qo'shgan zabardast adibdir. XX asr o'zbek nasrining 60-70 yillardan keyingi taraqqiyotini bu o'ziga xos yozuvchi ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos tarzda

namoyon bo'lishi avvalo adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rangbarangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir. Shukur Xolmirzayev «adabiyotga Surxon an'anasi -o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini -dialektini olib kirdi». Bu xususiyat ko'proq yozuvchining milliy -mahalliy an'anaga boy bo'lgan hikoyalarida ko'zga tashlanadi. Adib ijodining, xususan, hikoyalaring o'ziga xosligi, betakrorligi ham mana shu sabablardan kelib chiqqan. Yozuvchi 1940-yilning 24-martida Surxondaryoning Boysunida tug'ilgan Shukur Xolmirzayev maktabda o'qib yurgan paytalaridayoq ijod qila boshlagan. Ijodkor Toshkent davlat universitetida tahsil oldi. Shukur Xolmirzayevning adabiy merosi nihoyatda salmoqliyuzdan ortiq hikoya, e'lon qilingan 5 ta roman, e'lon qilinmagani yana ikkita, e'lon qilingan 4 ta qissa, e'lon qilinmagan yana bitta bor, bolalar uchun bitta komediya, va bitta pyesa, ikkita drama ikkita kinossenariy, „Tungi qadamlar” nomli radiopyesa, yigirmadan ortiq esse, o'nga yaqin ocherk, o'ndan ziyod maqola yozgan yozuvchini haqli ravishda adabiyotimiz xazinasini boyitgan so'z zargari deyishga haqlimiz. Shukur Xolmirzayevning “Oq otli” deb nomlangan ilk qissasi tog' bolalari hayotidan hikoya qiladi. Talabalik yillarda yozilgan “To'lqinlar” (1963), “O'n sakkizga kirmagan kim bor?” (1965) qissalari o'z avlodi – tengqurlari hayotiga bag'ishlangan. Shundan keyin adibning “Olis yulduzlar ostida” “Hayot abadiy”, “Og'ir tosh ko'chsa...”, “Bodom qishda gulladi” (1968), “So'nmas olov” (1985), “Tog'larga qor tushdi” (1987) kabi hikoyalari to'plamlari, “So'nggi bekat”, “Qil ko'prik”, “Yo'lovchi”, “Olabo'ji” romanlari chop etildi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligidni ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Adibni 1 zamoni, o'tmishni kuzatish, sinchiklab o'rganish, xalqning his-tuyg'ulari, dardi va orzularini aks ettirishga bo'lgan talab hamda hikoya va qissa janrlarida orttirilgan tajriba yozuvchini turli yo'nalişdag'i romanlar yozishga undagan.

Adibning “Boychechak ochildi” hikoyasida Qo'ng'irot domlaning shahar hayotidan ko'ngli siqilib, o'z ona qishlog'iga bahor faslida borishi, unda birgina bahorning ilk guli boychechakni ko'rib, bolalarcha tog' bag'ridan uni izlashi, qalbida bahor kabi jonlanish, yasharish boshlangani nihoyatda ta'sirchan tasvirlanadi. Adib hikoyalarda tabiat tasviri muayyan estetik vazifani bajaradi. U faqatgina tabiat dunyosining bir bo'lagi emas, balki qahramon dunyoqarashining va insoniy go'zalligining shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatuvchi poetik vosita hamdir. Inson va tabiat muammosi Sh.Xolmirzayevning ayrim hikoyalari mavzusiga tegishli mavsumiy hodisa emas. Bu munosabatlar tizimida yozuvchi Inson va tabiatning o'z vazifasi, asardagi o'rni va jamiyattdagi mantig'ini tushuntirib berishga erishgan.

Yozuvchining “Olabo'ji” romanini o'qiganimizda anglaymizki, Olabo'ji - sho'ro tuzumining yashash tarziga bo'yin egmagan, milliy qadriyatlarimizga ixlosi baland bir devonadir. Devona? Yo'q, unday emas: bu devona – buyuk arxeolog (qadimshunos), ayni chog'da o'ziga xos o'jar bir insondirki, hayotning zarbalaridan qochib, tabiat bag'riga chekinadi. Shu bois «Jinni» laqabini oladi va oqibat jinnixonaga jo'natiladi.

Shukur Xolmirzaev asarlarini o'qib, so'ng yozuvchi voyaga yetgan Surxon vohasiga, Boysun tog'lariga, bepoyon dashtlariga qadami tushgan kishi undagi manzara, rangbaranglikni ko'radi, ajib ohanglarni eshitadi, ularning hammasi ana shu yuragida hayot, tiriklik «tepib turgan» tabiatning «issiq» bag'ridan olinganini baralla sezadi. Shukur Xolmirzaevning o'zi

hayotni teran anglagan, insoniyat ruhiyatidagi o‘zgarishni sezaga oladigan inson edi. Shuning uchun ham u asarlarida tabiat qonuniyatlari asosida ish ko‘radi, bu tabiiylik hyech qachon buzilmasligi kerakligi, buzilgan taqdirda katta falokatlar, fojialar keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xulosalar chiqaradi.

FOYDALANILGN ADABIYOTLAR:

- 1.Doniyorova SH. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o‘ziga xosligi: Filol. Fanlari nomzodi... diss. Avtoref. - Toshkent, 2000. - B.16.
- 2.Abror Kamolov Abduhalim o’g’li, “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida peyzajning poetik funksiyasi” magistrlik dissertatsiyasi,Termiz-2022
- 3.Karimov H. Shukur Xolmirzayev. Ijodiy portreti.- Toshkent: Qatortol-Kamolot,1999
- 4.Tavaldiyeva G, Shukur Xolmirzayev ijodiy yo‘li,Toshkent-2001
- 5.Tavaldiyeva G, Shukur Xolmirzayev ijodiy yo‘li,Toshkent-2001